

Buxoro davlat universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti talabalari tomonidan o'tkazilgan "Futbol" musobaqa tadbiri

Bayonnomasi

Buxoro shahar

11.03.2025-yil

Qatnashdilar:

Buxoro davlat universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultet tyutorlari Hafizova.D, Djumayeva.O, Nasriyev.A, Farmonov.N , magistr Sattarov.A.A hamda fakultet talabalari.

Kun tartibi:

Fakultet talabalari bilan "Futbol" musobaqasini tashkil etish.

Eshitildi:

Joriy yilning 11-mart kuni Buxoro davlat universitetining Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida tyutorlari tomonidan "Dekan kubogi" futbol sport musobosiga start berildi. Musobaqada ikkita guruh ham faol qatnashdi. Boshqa guruh talabalari ham musobaqada faol ishtirok etishdi. Shu kabi tadbirlarni muntazam tashkil etish – yoshlarning sport sohasida qiziqishlarini oshirishga hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sport – sog'lomlik garovi hisoblanib, insonning aqliy va jismonan kuchli bo'lishiga xizmat qiladi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha besh muhim tashabbusda ham yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berish belgilab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, Buxoro davlat universitetining Agronomiya va biotexnologiya fakultetida ham talabalar orasida ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida sport sohasida turli tadbirlar, tanlovlar tashkil etilib kelinmoqda.

Qaror qilindi:

Talabalar orasida sportni keng targ'ib etish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida fakultet o'qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikda sport musobaqalari, tanlovlar, tadbirlar o'tkazishga kelishib olindi.





Bayonlashtirdi:

Sattarov.A.A